| <b>Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna</b>                                                                                                             |      |
| Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar .....                                                                     | 1276 |
| <b>Sharipova Sarvinoz Sayid qizi</b>                                                                                                                    |      |
| Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....                                                      | 1280 |
| <b>Usmonova Mohizoda Avazjon qizi</b>                                                                                                                   |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati .....                                              | 1283 |
| <b>Xomidova Dilorom Abduraxmonovna</b>                                                                                                                  |      |
| Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....                                                            | 1286 |
| <b>Yavkochdiyeva Dilafruz Egamqulovna</b>                                                                                                               |      |
| Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi .....                                                                | 1289 |
| <b>Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi</b>                                                                                                             |      |
| Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России .....                      | 1293 |
| <b>Суярова Айнура Ибодуллоевна</b>                                                                                                                      |      |
| Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....                           | 1296 |
| <b>Kilichev Nurulla Abbosovich</b>                                                                                                                      |      |
| Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....                                                                                    | 1300 |
| <b>Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna</b>                                                                                                               |      |
| Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari .....                                                                  | 1303 |
| <b>Abdushukurova Mushtariy</b>                                                                                                                          |      |
| Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....                                                  | 1308 |
| <b>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</b>                                                                                                                 |      |
| Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сиббордин": педагогические условия.....  | 1310 |
| <b>Нумонжоннова Фарангиз Комиловна</b>                                                                                                                  |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli .....                                                             | 1314 |
| <b>Choriyeva Xurmo Panji qizi</b>                                                                                                                       |      |
| Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi .....                                                                          | 1316 |
| <b>Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li</b>                                                                                                                   |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari .....                             | 1321 |
| <b>Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi</b>                                                                                                            |      |
| Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....                                                                  | 1325 |
| <b>Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich</b>                                                                                                                |      |



|                                                                                                                                                                                                                            |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyaning o'rganish va koreksiyalash .....                                                                                                                                      | 1329 |
| <i>Azimova Aziza Baxtiyorovna</i>                                                                                                                                                                                          |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari .....                                                                                                  | 1333 |
| <i>Mirzayeva Dilafruz</i>                                                                                                                                                                                                  |      |
| Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....                                                                         | 1337 |
| <i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>                                                                                                                                                                                 |      |
| Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari .....                                                                                                                                              | 1342 |
| <i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>                                                                                                                                                                                   |      |
| Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri .....                                                                                                                                    | 1346 |
| <i>Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich</i>                                                                                                                                                                                   |      |
| Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....                                                                                                                     | 1349 |
| <i>Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna</i>                                                                                                                                                        |      |
| The Integration of Web Technologies in Language Education .....                                                                                                                                                            | 1353 |
| <i>Kadirova Feruza Hikmatullayevna</i>                                                                                                                                                                                     |      |
| Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....                                                                                                                              | 1357 |
| <i>Kosimova Gulloila Mullajonovna</i>                                                                                                                                                                                      |      |
| Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....                                                                          | 1360 |
| <i>Nishonova Munira Yakubjonovna</i>                                                                                                                                                                                       |      |
| Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari .....                                                                                                                                          | 1364 |
| <i>Mamirova Dilorom Tavakulovna</i>                                                                                                                                                                                        |      |
| Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida .....                                                                                                                                                                 | 1367 |
| <i>Meliboyev Tavakkal Turg'unovich</i>                                                                                                                                                                                     |      |
| Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....                                                                                                     | 1371 |
| <i>Mexmonov Ismat Toshpo'latovich</i>                                                                                                                                                                                      |      |
| Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....                                                                                                                                                              | 1375 |
| <i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>                                                                                                                                                                                   |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari .....                                                                                                 | 1379 |
| <i>Mo'minov Durbek No'monovich</i>                                                                                                                                                                                         |      |
| Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari .....                                                                        | 1383 |
| <i>Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>                                                                                                                                                      |      |
| Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT .....                                                                                                 | 1386 |
| <i>Nizomov Feruz Raxmon o'g'li</i>                                                                                                                                                                                         |      |
| Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....                                                                                                                          | 1389 |
| <i>Nurmonova Zebo Fattaxovna</i>                                                                                                                                                                                           |      |
| Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....                                                                                                                                              | 1392 |
| <i>O'ktam Nosirov</i>                                                                                                                                                                                                      |      |
| Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqiy idrokini o'stirish texnologiyalari.....                                                                                                                     | 1398 |
| <i>O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>                                                                                                                                                     |      |
| Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega ..... | 1402 |
| <i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna</i>                                                                                                                                                                                      |      |
| Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti .....                                                                             | 1405 |
| <i>Quldashev Murodjon G'aniyevich</i>                                                                                                                                                                                      |      |
| Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari .....                                                                                                                                               | 1409 |
| <i>Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi</i>                                                                                                                                                                                   |      |
| Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar .....                                                                                                                                   | 1412 |
| <i>Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila</i>                                                                                                                                                                |      |
| Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida) .....                                                              | 1416 |
| <i>Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li</i>                                                                                                                                                                              |      |

|                                                                                                                                          |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati<br>(ingliz tili mashg'ulotlari misolida) ..... | 1419 |
| <b>Sotkulova Dildora Odinabekovna</b>                                                                                                    |      |
| Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati .....                             | 1423 |
| <b>Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova</b>                                                                                            |      |
| Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish .....                                                                     | 1427 |
| <b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida</b>                                                                                 |      |
| Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar .....                                             | 1430 |
| <b>Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna</b>                                                                                               |      |
| Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari<br>o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli .....                     | 1436 |
| <b>Yunusova Diloramxon Abdumajitovna</b>                                                                                                 |      |
| Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari .....                                    | 1440 |
| <b>Aripova Nodira Shuxratovna</b>                                                                                                        |      |
| Методы развития устной речи детей дошкольного возраста .....                                                                             | 1444 |
| <b>Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи</b>                                                                                                  |      |

# PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI UCHUN DARSDAN TASHQARI O'QUV-TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI

Yunusova Diloramxon Abdumajitovna

Andijon davlat pedagogika instituti,

Boshlang'ich ta'lim kafedrası assistent o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy jihatları yoritilgan. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda darsdan tashqari faoliyatning o'rni va ahamiyati ilmiy asosda bayon etilgan. Shuningdek, maqolada darsdan tashqari faoliyatga tayyorlash modeli ishlab chiqilib, uning tarkibiy qismlari, bosqichlari hamda samaradorlikka erishish uchun zarur bo'lgan shartlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik ta'lim, darsdan tashqari faoliyat, o'quv-tarbiyaviy jarayon, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik model, innovatsion metod, tarbiyaviy ishlar.

**Abstract:** This article examines the theoretical and practical aspects of preparing students of pedagogical education for extracurricular educational activities. The role and significance of extracurricular activities in developing the professional competencies of future teachers are scientifically substantiated. The article also presents a model for preparing students for extracurricular activities and analyzes its structural components, stages, and conditions necessary to achieve effectiveness. Based on the research results, scientific and practical recommendations have been developed to improve students' professional training.

**Key words:** pedagogical education, extracurricular activities, educational process, professional training, pedagogical model, innovative method, educational work.

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты подготовки студентов педагогического образования к внеурочной учебно-воспитательной деятельности. Научно обоснованы роль и значение внеурочной деятельности в формировании профессиональных компетенций будущих учителей. Разработана модель подготовки к внеурочной деятельности, проанализированы её структурные компоненты, этапы и условия достижения эффективности. На основе результатов исследования сформулированы научно-практические предложения по совершенствованию профессиональной подготовки студентов.

**Ключевые слова:** педагогическое образование, внеурочная деятельность, образовательный процесс, профессиональная подготовка, педагогическая модель, инновационный метод, воспитательная работа.

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – raqobatbardosh, malakali, tashabbuskor va yuksak ma'naviyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shuning uchun bugungi kunda pedagogik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy faoliyatda, xususan, darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Darsdan tashqari faoliyat – bu o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak pedagoglarni mazkur faoliyatga tayyorlash uchun ilmiy asoslangan pedagogik modelni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik ta'limda darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatning nazariy asoslarini o'rgangan mahalliy olimlar ta'kidlashicha, ushbu faoliyat talabaning shaxs sifatida kamol topishida va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Xususan, Tursunov va Usmonova o'z tadqiqotlarida pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayonida darsdan tashqari ishlarning o'quvchi va talaba faoliyatini faollashtirishdagi ta'sirini ilmiy asoslab bergan. Ularning fikricha, amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari va to'garaklar talabada tashabbuskorlik, muloqot madaniyati va mas'uliyat kabi sifatlarini shakllantiradi.

Darsdan tashqari faoliyatning bevosita metodik asoslari Xolmatova tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib, u ushbu faoliyatning shakl va mexanizmlarini tizimli ravishda yoritadi. Muallif darsdan tashqari faoliyatni to'g'ri tashkil etish pedagogning metodik tayyorgarligiga, faol o'qitish texnologiyalaridan foydalanishiga va talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, Abdullayeva olib borgan tadqiqotlarda darsdan tashqari faoliyat bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda markaziy o'rin tutishi, ayniqsa, ijtimoiy loyihalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va volontyorlik faoliyati orqali ularning amaliy tajribasi kengayishi ilmiy asoslab berilgan.

Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir davlat qarorlari ham darsdan tashqari faoliyatning strategik ahamiyatini belgilab beradi. Ayniqsa, "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaror va ta'lim sohasiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni oliy ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'radi. G'ulomov tomonidan yoritilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar esa darsdan tashqari faoliyatni zamonaviy metodlar bilan boyitish, talabalarni kreativ fikrlash va ijtimoiy faollikka yo'naltirish zarurligini asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonining samaradorligini aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar, asosan, pedagogik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalardan olingan so'rovnoma, kuzatuv natijalari va amaliy mashg'ulotlar jarayonida qayd etilgan pedagogik holatlar orqali to'plandi. Shuningdek, tajriba-sinov guruhlari faoliyatini o'rganish maqsadida darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va baholash jarayonlari monitoring qilindi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari orqali qayta ishlanib, talabalarning amaliy ko'nikmalari, tashabbuskorligi va kasbiy tayyorgarlik darajasidagi o'zgarishlar solishtirildi. Tahlil jarayonida statistik taqqoslash, diagnostik baholash va kontent tahlil usullaridan foydalanildi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatning pedagogik asoslari

#### Darsdan tashqari faoliyat tushunchasi va mazmuni

Pedagogika fanida "darsdan tashqari faoliyat" tushunchasi o'quv jarayonidan tashqarida, ammo ta'lim-tarbiya maqsadlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy, madaniy, sport, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlar majmui sifatida talqin etiladi. Bu faoliyat o'quvchi yoki talabani shaxs sifatida shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijtimoiy mas'uliyatni his etish kabi maqsadlarga qaratiladi. Darsdan tashqari faoliyatning shakllari xilma-xildir: to'garaklar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, ijodiy kechalar, ilmiy loyihalar, volontyorlik aksiyalari, vatanparvarlik tadbirlari va boshqalar. Bu jarayonlar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

#### Darsdan tashqari faoliyatning tarbiyaviy imkoniyatlari

Darsdan tashqari faoliyat – bu tarbiya jarayonining davomidir. Talaba o'zining bilimni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni, jamoa bilan ishlashni, liderlik fazilatlarini namoyon etishni o'rganadi. Shu bois darsdan tashqari ishlar tarbiyaviy jarayonning ajralmas bo'lagi sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, ekologik madaniyat, fuqarolik mas'uliyati kabi jihatlar aynan ushbu faoliyat orqali samarali shakllanadi.

#### Darsdan tashqari faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining roli

Pedagog darsdan tashqari ishlarning tashkilotchisi, rahnamosi va tahlilchisi sifatida faoliyat yuritadi. Uning vazifasi – talabalar qiziqishini aniqlash, ularni faol ishtirok etishga yo'naltirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdir. Bu jarayonda o'qituvchi rahbarlik emas, balki hamkorlik asosida ishlashi zarur.



## Bo'lajak pedagog talabalarni darsdan tashqari faoliyatga tayyorlash jarayoni va modeli

### Tayyorlash zaruriyati

Bo'lajak pedagoglarni darsdan tashqari faoliyatga tayyorlash – bu ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi muhim bosqichdir. Chunki zamonaviy o'qituvchi nafaqat darsni o'ta olishi, balki o'quv–tarbiyaviy jarayonni keng ma'noda boshqarishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning aksariyati darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda nazariy bilimga ega bo'lsa-da, amaliy ko'nikmalari yetarli emas. Shu bois maxsus model orqali ularning tayyorgarlik darajasini bosqichma–bosqich oshirish maqsadga muvofiqdir.

### Tayyorlash modeli tarkibi

Pedagogik model quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

1. Maqsadli komponent – talabalarni darsdan tashqari faoliyatni tashkil etishga kasbiy jihatdan tayyorlash.
2. Mazmuniy komponent – pedagogika, psixologiya, metodika fanlarida olingan bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish.
3. Texnologik komponent – faol o'qitish usullari, loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar, treninglar orqali ko'nikma hosil qilish.
4. Natijaviy komponent – talabaning mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik, ijodkorlik, ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarini shakllantirish.

### Modelning bosqichlari

| Bosqich nomi       | Faoliyat mazmuni                                                                                   | Natija                                             |
|--------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| <b>Motivatsion</b> | Darsdan tashqari ishlarning ahamiyatini tushuntirish, talabalarni faol ishtirokga jalb qilish.     | Qiziqish va ichki motivatsiya shakllanadi.         |
| <b>Amaliy</b>      | Darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish, metodik materiallar ishlab chiqish, loyiha faoliyati. | Tashkilotchilik va ijodiy ko'nikmalar rivojlanadi. |
| <b>Refleksiv</b>   | Faoliyatni tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash, o'zini baholash.                                | Kasbiy o'sish, mustaqil fikrlash shakllanadi.      |

### Samaradorlik shartlari

- Modelning muvaffaqiyatli ishlashi uchun quyidagi pedagogik shartlar zarur:
- talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab–quvvatlash;
- mentorlik va murabbiylik tizimini joriy etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash;
- raqobat, tanlov, loyiha asosidagi ta'lim usullaridan foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy foydali tashabbuslarni rag'batlantirish.

### Modelni amaliyotga joriy etish va natijalar tahlili

#### Modelni tajriba–sinovdan o'tkazish

Tadqiqot davomida pedagogika fakulteti talabalari ishtirokida tajriba–sinov ishlari o'tkazildi. Jarayon davomida talabalarga darsdan tashqari ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish bo'yicha treninglar o'tkazildi. Shuningdek, ular o'quvchi yoshlar bilan birgalikda ijtimoiy loyihalarda ishtirok etdilar.

#### Tajriba natijalari

Sinov ishlari natijasida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi:

- talabalarning darsdan tashqari faoliyatni tashkil etishdagi ishtiroki 2,3 barobar oshdi;
- mustaqil rejalashtirish ko'nikmasi shakllandi;
- talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, jamoada ishlash va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish;
- darsdan tashqari ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

**Amaliy tavsiyalar**

- har bir pedagogik ta'lim yo'nalishida "Darsdan tashqari faoliyat metodikasi" fani joriy etilishi kerak;
- talabalarning o'z tashabbusi asosida to'g'arak, klub yoki loyiha tashkil etishiga imkon yaratish zarur;
- o'qituvchilar uchun "mentor" tizimini yo'lga qo'yish, ularga metodik qo'llanmalar berish maqsadga muvofiqdir;
- darsdan tashqari faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli ularning kasbiy shakllanishida muhim o'rin tutadi. Mazkur model talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, ularni tashabbuskor, ijodkor va mas'uliyatli pedagog sifatida tayyorlash imkonini beradi. Darsdan tashqari faoliyat orqali talaba o'zining kasbiy qobiliyatini sinovdan o'tkazadi, shaxsiy sifatlarini rivojlantiradi va kelajakda maktabdagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni to'laqonli tashkil etishga tayyorlanadi. Shu bois mazkur model oliy ta'lim tizimida keng joriy etilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2020.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
3. Tursunov Sh., Usmonova M. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
4. G'ulomov A. Pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2023.
5. Xolmatova N. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
6. Abdullayeva Z. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda darsdan tashqari ishlarning o'rni. – "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.